



## 5-SINF ONA TILI MASHG'ULOTLARIDA SINONIMLAR LUG'ATINI TUZISH METODIKASI

*Uzoqova Nargiza Yuldashevna*

*Shahrisabz davlat Pedagogika instituti*

*Til va adabiyot kafedrasasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada 5-sinf ona tili darslarida sinonimlar lug'atidan foydalanish va uning samaradorligi haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** so'z ma'nosini, lug'at, faollashtirish, so'z boyligi, dars.

Maktab o'quvchilari nutqini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri so'z ustida ishlash, ya'ni lug'at ishidir. Ona tili darslarida bajariladigan lug'at ishi o'quvchining so'z boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Lug'at ishi bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin: 1) so'z ma'nosini tushuntirish, 2) so'zni faollashtirish, 3) so'zni nutqda qo'llash.

O'quvchilar lug'atini faollashtirish – ona tili darslarida bajariladigan lug'at ishining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi – o'quvchi lug'atidagi nofaol so'zlarni faol lug'at zaxirasiga o'tkazish uchun o'quvchiga nofaol so'zlarning birikuvchanligi va qo'llanish sohasini o'zlashtishga yordam berishdan iborat. O'quvchi biror so'zni o'zi qayta hikoyalashi, hikoyasi, suhbati, xati, bayoni, inshosida atigi bir marta qo'llasa ham, bu so'z faollahgan hisoblanadi. So'zni o'zlashtirish uning ma'nosini, birikuvchaligi va qo'llanish doirasini bilishdan iborat.

O'quvchiga yangi so'z ma'nosini tushuntirish, uning so'zni to'g'ri tushunishiga erishish zarur. Buning uchun esa o'qituvchi so'z ma'nosini tushuntirish usullarini bilishi va ulardan o'rinni foydalanishi lozim. So'z ma'nosini tushuntirishning quyidagi usullarini ajratish mumkin: ko'rgazmali, kontekstual, sinonim keltirish, mantiqiy ta'rif berish, batafsil tavsiflash, antonim keltirish, so'zning yasalish tarkibini tahlil qilish.



O‘quvchilar lug‘atini faollashtirish quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

- 1.So‘z ma’nosini bir yoki bir necha usul yordamida tushuntirish:
  - a) kontekst yordamida;
  - b) shu so‘zning ma’nodoshi yordamida;
  - c) shu so‘zning antonimi yordamida;
  - d) tavsify yo‘l bilan (lug‘atdan foydalanib yoki o‘qituvchning o‘zi mustaqil ravishda).
- 2.So‘zni o‘qish va yozish (so‘zning to‘g‘ri talaffuzi va imlosi ustida ishlash).
- 3.So‘zning qo‘llanish namunalari ustida ishlash (tayyor so‘z birikmasi va gaplar ustida ishlash).

O‘qituvchi o‘quvchilarni o‘rganilayotgan so‘zlar qo‘llangan tayyor so‘z birikmalari va gaplar bilan tanishtiradi.Ularning ayrimini aytib turib yozdirish mumkin.

#### 4.So‘zning semantik aloqalari ustida ishlash.

O‘quvchilarni so‘zlarning paradigmatic aloqalarni ajratish va o‘zlashtirishga o‘rgatuvchi mashqlar ular lug‘atining boyishiga yordam beradi. Bunday mashqlar kerakli so‘zni tanlash, jumla mazmunini aniq yetkazish, so‘zning ma’no qirralarini tushunish qobiliyatini shakllantiradi.

5. O‘rganilayotgan so‘zlar ishtirokida mustaqil ravishda so‘z birikmasi va gap tuzdirish.

Istiqlol – mustaqillik, nurafshon – yorug‘, muborakbod etmoq – tabriklamoq, samo – osmon, ko‘k, gulshan – gulzor, sabo – shabada, munosabat – bog‘lanish, dorivor – shifobaxsh, yaproq – barg, hadya etmoq – bermoq, sovg‘a qilmoq, tub – tag, ahil – inoq, huvullamoq – bo‘shamoq, javon – shkaf, dastyor – yordamchi, alloma – olimlar, muhlat – vaqt, darg‘azab bo‘lish – g‘azablanish, shu’la – nur, ehtirom – hurmat, badavlat – boy, tazyiq – zug‘um, an’ana – odat, ta’na – dashnom, ta’ziya – aza, ma’lumot – xabar, ma’yuslanmoq – xafa bo‘lmoq, chashma – buloq, choq – payt, arg‘imchoq – ip, darz – yoriq, ranj – qiyinchilik, ganj – boylik, xazina,



sust – sekin, bol – asal, tabassum – kulgi, muddat – vaqt, tasalli – yupanch, musaffo – sof, toza, mutolaa – o‘qish, do‘kon – magazin, zoriqmoq – muhtoj bo‘lmoq, noyob – topilmas, undirmoq – o‘stirmoq, mamnun – xursand, gavjum – to‘la, surkash – surtish, ohista – sekin, et – go‘sht, daromad – kirim, xontaxta – stol, xazonrezgilik – barglarning to‘kilishi, ezgulik – yaxshilik, boldoq – zirak, najot – yordam, mo‘‘tadil – o‘rtacha, sarvqomat – tik, chanqagan – suvsiragan, so‘yla – gapir, so‘zla, toblanmoq – chiniqmoq, gazlama - mato, yo‘ldosh – hamroh, choyshab – ko‘rpa, silliq – tekis, intizom – tartib, olam – dunyo, mug‘ombir – ayyor, chaqa – tanga, parranda – qush, istirohat – dam olish, nishon – mo‘ljal, tebranmoq – qimirlamoq, husn – chiroy, sohil – qirg‘oq, pardoz – bezak, chaman – gulzor, parvarish qilmoq – boqmoq, olishmoq – kurashmoq, urishmoq, jajji – kichkina, mitti, mador – quvvat, g‘ubor – chang, dog‘, jussa – gavda, o‘git – nasihat, yumush – ish, jamlamoq – to‘plamoq, lazzat – rohat, jasorat – jasurlik, ulug‘ – buyuk, tortig‘ qilmoq, sovg‘a qilmoq, suyukli – sevimli, boqmoq – qaramoq, maftun bo‘lmoq – mahliyo bo‘lmoq, beg‘ubor – toza, sof, ko‘lanka – soya, ensiz – qisqa, enli – keng, g‘alati – qiziq, hushyor – sezgir, ziyrak, sayyoh – sayohatchi, turist, ilk – birinchi, tashna – suvsiz, chanqoq, hangu-mang – hayron, bezovta – notinch, maysa – o‘t.

Bu usulni qo‘llaganda o‘qituvchi shuni nazarda tutishi kerakki, so‘zlarni sinonim orqali tushuntirish o‘quvchilar har bir izohlovchi sinonimning ma’nosini yaxshi tushungandagina maqsadga yetadi. Shuning uchun so‘zning ma’nosini tushuntirish uchun keltirilgan sinonim sifatida faqatgina bolalar yaxshi tushunadigan umumiste’mol so‘zlarni tanlash kerak.

Darslikdagi ko‘pgina so‘zlarning ma’nosini ularning tarkibiy qismlari – morfemalar orqali aniqlash mumkin. Shu narsa ma’lumki, kattalar ham, o‘quvchilar ham noma’lum so‘zni bo‘lish va ma’lum bo‘lgan o‘zakdosh so‘z bilan mazmuniy aloqa o‘rnatish asosida ochishga harakat qiladi.



Darsliklardagi sinonimi mavjud bo‘lmagan quyidagi so‘zlar ma’nosini o‘quvchilarga tasviriy yo‘l bilan tushuntirish mumkin.

Anjuman – keng ko‘lamli, katta yig‘ilish.

Fuqaro – biror mamlakatning doimiy aholisi.

Ma’vo – turar joy.

Tazyiq – kuch bilan, zo‘rlab o‘tkazilgan ta’sir, siquv.

An’ana – avloddan-avlodga o‘tib boradigan urf-odat.

Ma’rifat – tabiat, jamiyat va inson haqidagi chuqur hamda ezgulikka yo‘naltirilgan bilim.

Qur’on – musulmonlarning Olloh tomonidan Muhammad payg‘ambarga vahiy qilingan (tushirilgan) muqaddas kitobi.

Qit’a – yerning dengiz va okeanlar bilan qurshalgan oltita alohida qismidan har biri.

So‘gal – badanga ko‘pincha qo‘l yoki oyoqda bo‘ladigan qattiq yumaloq o‘simta.

Mo‘jiza – odatdan tashqari kishini hayron qoldiruvchi hodisa yoki ish, narsa.

So‘na – urg‘ochisi hayvonlarning qonini so‘radigan, erkagi o‘t bilan ovqatlanadigan yirik pashsha.

Mavhum tushunchani bildiruvchi so‘zlar ma’nosini obrazlar yordamida tushuntirish mumkin. Adolat so‘zini obrazli ravishda quyidagicha tushuntirish mumkin: «O‘quvchilar, adolat bu odamlarga bir xilda munosabatda bo‘lishdir. Adolat taroziga o‘xshaydi. (O‘qituvchi tarozining rasmini ko‘rsatadi.) Tarozining ikkala pallasiga bir xil yuk qo‘ylsa, uning ikki pallasi teng bo‘ladi. Bir pallasiga og‘irroq yuk qo‘ylsa, tarozining bir pallasi baland, bir pallasi past bo‘ladi. endi hayotdan misol keltiraman. Masalan, bir otaning 2 o‘g‘li bor. Ota bozordan 4 ta olma olib keldi. Ikkala o‘g‘ilga 2 tadan olma bersa, bu adolatdan bo‘ladi. Bir o‘g‘liga bitta, ikkinchi o‘g‘liga uchta olma bersa, bu adolatsizlik bo‘ladi».



Jur'at so'zini obrazli tarzda quyidagicha tushuntirish mumkin: «O'quvchilar, jur'at – bu xavf-xatar, qiyinchiliklardan hayiqmay qilingan ish. Hayotda ko'p holda kishiga jur'at kerak bo'ladi. Masalan, tishingiz og'rib qolsa, tish shifokoriga borishingiz uchun jur'at kerak. Yoki matematikadan sizga qiyin misol berilgan bo'lsa, uni yechish uchun ham jur'at kerak. Jur'atni, o'quvchilar, jarlik ustidan sakrab o'tayotgan otga o'xshatish mumkin. Chunki jarlik ustidan sakrab o'tish uchun katta jur'at, jasorat kerak. O'quvchilar, hayotda qiyinchiliklardan qo'rqlay, jur'at bilan ish tut sangiz, ko'zlagan maqsadingizga erishasiz».

So'z ma'nosini tushuntirish – hali o'quvchilar lug'atini boyitishning birinchi bosqichi xolos. So'z o'quvchining "o'z mulki"ga aylanishi, ya'ni faol lug'atiga kirishi uchun katta ishni amalga oshirish talab qilinadi. Nutq o'stirish bo'yicha tajriba shuni ko'rsatadiki, bu borada shablon va rejasizlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Har bir dars uchun rejalshtiriladigan so'z ustidagi izchil, puxta, doimiy ish olib borilishi lozim.

O'quvchilar uchun tushunarsiz va nofaol so'zlarni faollashtirishning quyidagi yo'llari mavjud:

1. "Ona tili" darsliklarida berilgan o'quvchilar lug'atini faollashtirishga doir mashqlarni bajartirish.
2. Adabiyot darslarida o'qiganlarini qayta hikoyalash, suhbat, bayon, inshoda yangi va nofaol so'zlarni qo'llash.
3. Ona tili va adabiyot darslarida o'qituvchining o'zi tomonidan tuzilgan mashq va topshiriqlardan foydalanish.
4. Ona tili darsligidagi mashqlarga qo'shimcha topshiriqlar ilova qilish.

Ona tili darslarida o'quvchilar lug'atini faollashtirish uchun o'qituvchining o'zi tomonidan tuziladigan quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Har bir qatordagi o'zakdosh so'zlarni toping.

Qadrli, aziz, qadrdon;

Vafodor, sadoqatli, bevafo;



Mehrli, xushfe'l, mehribon;

Qo'pol, qo'rs, qo'pollik.

O'zakdosh so'zlarni ajratib yozing. O'zagini belgilang. Shu so'zlardan istagan birini qo'llab gap tuzing.

2. Sabr, hurmat, e'tibor so'zlariga o'zakdosh so'zlar toping.

Izohli lug'atdan bu so'zlarning ma'nosini o'qing va eslab qoling.

1) Insonni nima uchun hurmat qilish mumkin?

2) Har qanday odam hurmatga loyiqmi?

3. Har bir so'zning qaysi turkumiga kirishini aniqlang.

Ishonch, ishonmoq, e'tibor, ishonchli, mehmondo'st, mazax qilmoq, xafa qilmoq, xushfe'l, bag'ritosh, nafratlanmoq, yaxshi ko'rmoq, loqayd, hurmat, halol, rost, rostgo'y, shafqatsiz, insonparvar.

So'zlarni uch ustunchaga ajratib yozing: ot, sifat, fe'l. Insonning ijobiy xislatlarini ayting. Bag'ritosh va mehribon so'zlarining ma'nosini tushuntiring.

4. Berilgan so'zlarga qarama-qarshi ma'noli so'zlar topib yozing.

Dono odam – nodon odam; xushfe'l yigit –...; jasur askar –...; shirinso'z bola –...; bag'ritosh odam –...; qahrli nigoh –...

Foydalanish uchun so'zlar: badfe'l, mehribon, qo'rkoq, qo'pol, mehrli.

5. Berilgan sifatlarning umumiyligi jihatni nimada? Ularning ma'nosida qanday farq bor?

Xushmuomala, shirinso'z, xushfe'l, nazokatli, odobli, muloyim, kirishimli, dilkash.

6. Lug'at diktanti.

Birinchi ustunchaga odamlar qanday bo'lishi kerakligi bildiruvchi, ikkinchi ustunchaga qanday bo'lmashligi kerakligini bildiruvchi so'zlarni yozing.

Xushfe'l, qo'pol, yolg'inchi, halol, vijdonli, qasoskor, sabrli, shafqatli, to'g'riso'z, shafqatsiz.

Shu so'zlardan uchtasini tanlab gap tuzing.



7.Quyidagi gaplardan to‘g‘ri so‘zining ma’nolarini qiyoslang.

To‘g‘ri odam yolg‘on gapimaydi.Nodirning javobi to‘g‘ri.

Qaysi so‘zlar birinchi gapga, qaysi so‘zlar ikkinchi gapga mos keladi: halol, aniq, insofli, rost.

8.Yumshoq va muloyim so‘zlarini quyida berilgan qaysi otlar bilan bog‘lash mumkin?

Divan, so‘z, odam, mum, kulgi, yostiq, xamir, ko‘rpa, muomala.

9.Qarama-qarshi ma’noli so‘z yozib, ma’nosini izohlang.

shafqatsiz –...;

xushmuomala – ...;

vijdonli – ...;

ishchan –...;

loqayd – ...;

sabrli – ...;

andishali–...;

saxiy– ...;

O’quvchi nutqining muhim ko’rsatkichlaridan biri uning so‘z boyligidir.

Pedagogic adabiyotlarda berilgan ilmiy ma’lumotlarga qaraganda, 2 yashar bolalar 30 dan 100 gacha, 4 yoshli bolalar 1000 dan 4000 gacha, 7 yoshli bolalar 3000 dan 7000 gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000 dan 15000 gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000 gacha so‘zni bilishlari lozim2. Ammo, afsuski, ona tili mashg’ulotlarida fikrni og’zaki va yozma shakllarda bayon qilish zaruriyati tug’ilganda o’quvchilardagi so‘z qashshoqligi darrov sezilib qoladi. Nutqda so‘zlarni takroriy qo’llash, berilgan so‘zni uning ma’nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma’nолиги bilan almashtira olmaslik, ma’lum bir sohaga qarashli so‘zlar lug’atini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, o’quvchilarning so‘z boyligi yetarli emasligidan dalolat beradi.



Xullas, o'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas.

Barcha imkoniyatlar to'laligicha ishga solinsagina fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish jarayoni oson kechadi. O'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochadi.

#### **Foydalanilgan adabiotlar:**

1. Muhittinova H. Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzlucksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. P.f.d. diss. – Toshkent, 2011.
2. Sattorova N. O'quvchilarning insho yozish malakalarini shakllantirish. P.f.n. diss. – Toshkent: 1995.
3. Сафаров Ф. С. Ўқувчиларга мавхум тушунчаларни образ воситасида тушунтириш. – “Педагогик маҳорат” журнали. Бухоро, 2013, 2-сон, Б. 50 – 53.